

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021 Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘RALOV G‘AYBULLA ALIQULOVICH

**QASHQADARYO VOHASIDA TARIXIY-MADANIY MEROS
OBYEKTLARING TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH
MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR (1991–2023-yillar)**

07.00.01. – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

О‘ralov G‘aybulla Aliqulovich

Qashqadaryo vohasida tarixiy-madaniy meros obyektlarning turizm salohiyatini oshirish masalalari: muammo va yechimlar (1991–2023-yillar) 5

Уралов Гайбулла Аликулович

Вопросы повышения туристического потенциала объектов историко-культурного наследия Кашкадарьинского оазиса: проблемы и решения (1991-2023 гг.)... 25

Uralov Gaybulla Alikulovich

Issues of increasing tourism potential of historical and cultural heritage objects in the Kashkadarya oasis: problems and solutions (1991-2023) 49

Эълон қилинган илмий ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of publications..... 54

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**PhD.03/27.02.2021 Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘RALOV G‘AYBULLA ALIQULOVICH

**QASHQADARYO VOHASIDA TARIXIY-MADANIY MEROS
OBYEKTLARING TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH
MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR (1991–2023-yillar)**

07.00.01. – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2023.1.PhD/Tar.1338 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xasanov Akram Muminovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar: Xushvaqov Nabi Olimovich
tarix fanlari doktori

Meliqulov G'ayrat Abdumuminovich
arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "23" 05 soat 9.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (23) raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" 05 kuni tarqatildi.
(2025-yil "10" 05 dagi 12 raqamli reestr bayonnomasi bilan).



AR

B.J. Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash raisi, t.f.d.,
professor

Sh

N.N. Rajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash kotibi, t.f.n.,
dotsent

10.05

Yu.A. Ergasheva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi globallashtirish sharoitida tarixiy-madaniy meros obyektlarida turistik salohiyatni oshirish, turizm salohiyatini takomillashtirish borasida samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunda tarixiy-madaniy meros obyektlarini strukturaviy tuzilishini saqlab qolish, muhofaza zonalarini yaratish, ularning atrofidagi tarixiy muhit bilan birga asrash va ulardan oqilona foydalanishi, me'moriy obyektlarni ta'mirlash ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali turizm sohasi salohiyatini oshirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Shu boisdan BMTning YUNESKO va Butun jahon turizm tashkiloti (VTO) kabi xalqaro idoralari tarixiy-madaniy meros obyektlarini saqlab qolish, ichki va tashqi turizmni rivojlantirishning muhim omili sifatida asosiy e'tiborni qaratmoqda.

Dunyoning AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya, Yaponiya, Turkiya va Malayziya kabi yetakchi davlatlarning ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida madaniy meros obyektlarini aniqlash, me'morchilik majmualari, tarixiy obidalarni ilmiy jihatdan o'rganish hamda shu asosda turistik salohiyatni oshirish sohasida ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, tarixiy turizm hududlarini tashkil qilish, innovatsion yechimlarni joriy etish, tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, ularni tiklash, restavratsiya qilish ishlarida asl holatni saqlab qolish kabi dolzarb masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda oxirgi yillarda tarixiy hududlarning turistik infrastrukturasi salohiyatini oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilib, tarixiy-madaniy meros obyektlarning turistik yo'nalishlardagi o'rnini aniq belgilash, ulug'vor va boy madaniy merosni asrash-avaylash, o'rganish va uni ommalashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. "Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – yaqin yillarda yurtimizga keladigan turistlar sonini 9 mingga yetkazishdan iborat. Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan. Ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi obyektlar sonini 800 taga yetkazish bo'yicha choralar ko'rishimiz kerak"¹. Shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham madaniy-meros obyektlarini asrab avaylash, obod etish, bu joylarda turizm salohiyatini oshirish, nafaqat viloyat, respublika balki xorijiy turistlarni jalb etish dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-martdagi 198-son "Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2021-yil 1-martdagi 112-sonli "Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 168-169.

to'g'risida"²gi, 2021-yil 16-fevraldagi 74-sonli 2021–2023-yillarda “Qashqadaryo viloyatining G‘uzor va Yakkabog‘ tumanlari markazlarini obodonlashtirish va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari³ hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan. Taraqqiyot strategiyasi to'g'risi”⁴gi Farmoni, 2018-yil 16-yanvardagi PF–5181-son “Moddiy, madaniy va arxeologik meros obyektlaridan foydalanishni va muhofazasini takomillashtirish to'g'risida”, 2021-yil 9-fevraldagi PF–6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2014-yil 21-iyuldagi PQ–200-son “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasidagi tarixiy-madaniy meros obyektlarida turistik salohiyatni oshirish masalalari mavzusi hozirgi kunga qadar alohida tadqiqot sifatida hamda muammoviy o'rganilgan emas. O'rganilayotgan mavzu tarixiy mosligini shartli ravishda 2 guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh adabiyotlariga bevosita O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosimizning konseptual asoslarini ishlab chiqish yuzasidan yaratilgan asarlar hamda tarixiy-madaniy merosni hisobga olish, saqlash va ilmiy o'rganish hamda madaniy meros obyektlari tarixi bilan bog'liq masalalar tahlil etilgan asarlar kiradi. Jumladan, U. Uvatov, P. Ravshanov, A. Choriyev, O'. Mavlonov, I. Rayxonov, Sh. Ashurova, A. Xasanov, A. Jumanazarov, O. Bo'riyev, I. Daminov, S. Oqilov, Q. Nasriddinov, N. Xushvaqov, A. Ergashev, R. Ixсанov, Sh. Sharopov,

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 8 мартдаги 198-сон “Қашқадарё вилоятининг туризм салоҳиятидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ва 2021 йил 1 мартдаги 112-сон “Қашқадарё вилоятида туризм соҳасини янада қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари. “Халқ сўзи”, 2019 йил 9 март, 2021 йил 2 март.

³ 2021 йил 16 февралдаги 74-сон 2021–2023 йилларда “Қашқадарё вилоятининг Ғузор ва Яққабог‘ туманлари марказларини ободонлаштириш ва комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. “Халқ сўзи”, 2021 йил 17 февраль.

⁴ <https://lex.uz/docs/5841063>. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 28.01.2022 йилдаги ПФ–60-сон.

I. Xoliyorov va boshqa mualliflar jamoasi tomonidan⁵ yaratilgan monografiya, risola va tadqiqotlarida ma'lum ma'noda o'rganilayotgan masala yuzasidan ayrim ma'lumotlar kiritilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi guruh adabiyotlargiga A.M. Mirzayev, R.B. Abriyev, S. Jo'rayeva, M. Hamidova, G'. Meliqulov, G'. Rasulov, F. Xayoitova, S. Safarov, A. Eralov⁶ larning dissertatsion tadqiqot ishlarini kiritishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot ishlarida asosiy e'tibor tarixiy madaniy merosga munosabat, qayta tiklanish, ta'mirlash, arxeologik obyektlardagi turistik holat kabi masalalar ko'rib chiqilganligi bilan ahamiyatli hisoblansada, Qashqadaryo vohasidagi tarixiy-madaniy meros obyektlarida turistik salohiyatni oshirish masalalari: muammolari va tahlillari ko'rib chiqilmaganligi bois, ushbu mavzuni chuqurroq o'rganish zarur ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga ko'ra O'zbekiston tarixi

⁵ Уватов У. Абул Муин ан-Насафий ҳаёти ва мероси. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 36 б.; Равшанов П. Султон Мир Ҳайдар ота дарожоти. – Тошкент, 2016; Чориев А. Ҳазрати Башир тарихи. – Тошкент, 1994; Ҳазрати Султон тарихи ва Ҳазрати Башир манокоби. – Тошкент: Шарқ, 1996; Мавлонов Ў., Абдувоситова И. Тарихий маданий мерос – миллий ғояни англаш омили. – Тошкент: Академия, 2014; Шаропов Ш. Қашқадарё зиёратгоҳлари. 1-китоб. – Тошкент: Voris-nashriyot, 2010; Райхонов И. Ҳазрати Жунайид ал-Бағдодийнинг ҳаёти ва мероси. – Қарши: Насаф, 2017; Абдуллоҳ ибн Ал-Муборак ал-Марвазийнинг ҳаёт йўллари. – Қарши: Насаф, 2004. Ашурова Ш., Ахмедова Қ. Қусам Шайх. – Қарши: Насаф, 2005. Хасанов А. Қашқадарё шаҳарсозлиги ва меъморчилиги (XVI-XIX асрлар). – Тошкент: Ворис, 2019; Абдусаттор Жуманазар. Насаф. – Қарши: Насаф нашриёти. – Тошкент, 2006; Бўриев О., Ачилов А. Қашқадарё воҳаси этномаданий қадриятлари. – Тошкент: Yangi nashr, 2014. – 364 б.; Даминов И. Жаҳолатга қарши маърифат билан курашган буюк аллома. Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази нашриёти, 2019. – Б. 156; Оқилов С. Маворауннаҳр мутафаккирлари илмий мероси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Nilol Nashr, 2019; Ўша муаллиф Абул Муин ан-Насафий ва “Табсират ал-адилла” асарининг аҳамияти. // ТИУ илмий таҳлилий ахбороти. 2002. – № 1. – Б. 32-35; Ўша муаллиф Абул Муин ан-Насафий илмий мероси ва мотурудия таълимотининг шаклланиш тарихи. Монография. – Тошкент: Моворауннаҳр, 2012. – Б. 185; Насриддинов Қ, Хўжаёров Ў. Қарши шаҳрининг меъморий ёдгорликлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011; Равшанов П. Султон Мир Ҳайдар ота дарожоти. – Тошкент, 2014; Равшанов П.Н. Хушвақов. Қашқадарё тарихига саёҳат. – Тошкент: Илм-зиё-заковат нашриёти, 2020; Эргашев А. Ғузур меъморчилиги тарихи. – Тошкент: Ҳилол медиа, 2019; Ўша муаллиф. Мири Жанда ота мажмуаси. – Тошкент, 2019; Қашқадарёга ҳуш келибсиз. – Буюк ипак йўли маданият чорраҳасига. – Тошкент: Мерос, 2022; Шаропов Ш. Қашқадарё зиёратгоҳлари. – Тошкент: Ворис, 2010; Шаропов Ш., Холиёров И. Исоқ бува зиёратгоҳи. – Тошкент: Ворис-нашриёт, 2016.

⁶ Мирзаев А.М. Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларни муҳофаза этиш ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши (1917-1941 йиллар). Т.ф.н. дисс. автореферати. – Тошкент, 1994; Абриев Р.Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихи (Зарафшон воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2018; Жўраева С. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни. – Тошкент: O'zkitobsavdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021; Хайитова Ф. Ўзбек халқи этномаданиятида зиёратгоҳлар тарихи (Қашқадарё воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореферати. – Қарши, 2022, Hamidova M.S. O'zbekiston hududidagi Amir Temur va temuriylar davri me'moriy yodgorliklari tarixi. Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022; Meliqulov G'.A. Tarixiy yodgorliklar asosida hududlarning turizm imkoniyatlarini oshirish yo'llari (Qashqadaryo viloyati misolida) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023; Rasulov G'.P. O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabat konsepsiyasi: ishlab chiqilishi va amaliyoti. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Termiz, 2023; Safarov S.B. Mustaqillik yillarida janubiy O'zbekistonda madaniy meros obyektlari va zamonaviy turizmning rivojlanishi jarayonlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoreferati – Termiz, 2023; Eralov A.J. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanishi tarixi (1991-2020 yy). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoreferati. – Qarshi, 2023.

kafedrasining “Janubiy O‘zbekiston tarixi, arxeologiyasi va etnologiyasining dolzarb muammolari” bosh mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Qashqadaryo vohasi tarixi-madaniy meros obyektlarida turizm salohiyatini oshirishni ilmiy jihatdan tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini Qashqadaryo vohasidagi ahamiyatini yoritish;

O‘zbekistonda turizmning rivojlanishida tarixiy-madaniy meros obyektlarning ahamiyatini asoslash;

Qashqadaryo vohasi madaniy meros obyektlarining tarixi va turistik muammolarini ochib berish;

Tarixiy-me‘moriy yodgorliklarda turizmning rivojlanish jarayoni imkoniyatlarini ko‘rsatib berish;

Qashqadaryo vohasi ziyoratgohlari va ularning aholi ma‘naviy hayotidagi ahamiyatini ochib berish;

Ziyoratgohlarda turizm salohiyatini oshirish masalalarini ko‘rsatib berish.

Tarixiy hududlarda turistik yo‘nalishlarni shakllantirish tajribalarini o‘rganish;

Qashqadaryo viloyatining tarixiy-madaniy meros yodgorliklaridan foydalanib turistik yo‘nalishlarni shakllantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati madaniy meros obyektlarida zamonaviy turistik salohiyatni oshirish bilan bog‘liq imkoniyatlar belgilangan.

Tadqiqotning predmetini mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining tarixiy-madaniy meros obyektlarida ichki va tashqi turizmni rivojlantirishni tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda xranologik, izchillik va tarixiylik tamoyillari, xolislik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, og‘zaki tarix usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700 yilligi munosabati bilan vohadagi moddiy madaniy meros obyektlarining qaytadan ta‘mirlanishi tufayli ularni ziyorat qiluvchilar soni oshib, bu madaniy meros obyektlari mahalliy aholi doimiy ravishda ziyorat uchun boradigan muqaddas qadamjolar, ruhiy poklanish hamda ma‘naviy yuksalish maskanlariga aylangani, mazkur qadamjolarining tarbiyaviy-ma‘naviy salohiyatini yanada oshirish orqali ichki turizm rivoj topa boshlagani dalillangan;

Qashqadaryo vohasi yirik muqaddas ziyoratgohlar Shahrisabz shahridagi Oqsaroy, Dorussiyodat, Dorutilovat, Mavlono Xo‘jagiy Imkanagiy, Kitob tumanidagi Hazrati Bashir, Qamashi tumanidagi Katta Langar, Qarshi shahridagi Ko‘kgumbaz, Odina, Abu Ubayda ibn Jarroh, Qarshi tumanidagi Hazrati imom Mu‘in, Kasbi tumanidagi Sulton Mirhaydar, Koson tumanidagi Xusam Shayx, Muborak tumanidagi Abdulloh ibn al-Muborak Marvaziy ziyoratgohlarida ziyorat turizmining salohiyati yuqori ekanligi, bu esa respublika madaniy-tarixiy turizm rivojlanishida katta ahamiyatga ega ekanligi asoslangan;

Qashqadaryo viloyati madaniy meros obyektlarida 2019–2021-yillarda Odina masjidi, Xo‘ja Shamsiddin Halvoni maqbarasi, Qarshi qal‘a darvozasi, Shahrisabz qal‘a devori, Abdulazizxon madrasasi, Mahmud ibn Aminboy uyi, Xusam ota majmuasi, Kitob masjidi, Yodgor Valloma madrasasi, Pandiron masjidi, Mushkul ota maqbarasi, Xo‘ja Isparos masjidlarining loyiha – smeta ishlari tasdiqlanib, manzilli dasturga asosan mablag‘lar ajratilib, ta‘mirlash ishlari amalga oshirilgani, Qamashi tumanidagi “Langar ota” maqbarasi atroflarini va ziyoratgohga olib boruvchi yo‘llarda keng ko‘lamda obodonlashtirish ishlari amalga oshirilishi natijasida yurtimiz tarixi, madaniyatining xorijga ko‘rsatish orqali iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo‘shayotgani isbotlangan;

Qashqadaryo vohasidagi ziyoratgohlarning tarixiy-geografik joylashishi hudud ekologiyasi, millatning sog‘lom rivojlanishi yo‘llarini belgilab olish maqsadlariga xizmat qiluvchi, ekoturistik hamda davolovchi xususiyat sifatidagi Kitob tumani “Hazrati Bashir ziyoratgohi”, “Ne‘matulloh Valiy ziyoratgohi”, “Oq suv ziyoratgohi”, Yakkabog‘ tumanidagi “Chillabuloq” kabi muqaddas ziyoratgohlarning xalqimiz ma‘naviy hayotidagi rolini inkor etuvchi bir yoqlama mutaasiblik nuqtayi nazaridan qarashlarga qarshi xolisona tarixiylik asosida xulosalar berilib, ularning o‘zlikni anglash, milliy mafkurani shakllantirish va turizmni rivojlantirishdagi roli dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqotda muhokamaga tortilgan Qashqadaryo viloyati madaniy meros obyektlarida turizm sohasini yanada rivojlantirish istiqbollari va muammolari bilan bog‘liq xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Shuningdek, Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi istiqbolli rejalarni ishlab chiqishda turizm sohasidagi qarorlar va davlat dasturlari ijrosini amalga oshirishda viloyat iqtisodiyotida turizmning ahamiyatini yanada yuksaltirishda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirishda dissertatsiyada keltirilgan taklif va tavsiyalardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi tarixiy adabiyotlardan fodalanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Qashqadaryo viloyatida madaniy meros obyektlarini hisobga olish, ilmiy jihatdan o‘rganish, tarixiy ahamiyatini belgilash, shu asosda viloyatda ichki va tashqi turizm salohiyatini oshirish bilan bog‘liq nazariy asoslar ishlab chiqilib, sohani yanada takomillashtirish bilan bog‘liq yo‘l xaritasini tuzib chiqish yuzasidan nazariy xulosalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada keltirilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar asosida Yangi O‘zbekistonda madaniy meros obyektlarini saqlanishini, ilmiy jihatdan o‘rganish hamda Qashqadaryo viloyati tarixi va turizm sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishida,

OTM muassasalari talabalari uchun tarix, madaniyat, turizm tarixiga oid maxsus kurs, o'quv qo'llanmalari va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo vohasidagi tarixiy-madaniy meros obyektlarida turichtik salohiyatni oshirishga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700 yilligi munosabati bilan Qashqadaryo viloyatidagi moddiy madaniy meros obyektlarining qaytadan ta'mirlashnishi sabab ziyorat qiluvchilar soni oshib, muqaddas qadamjolar ruhiy poklanish, ma'naviy yuksalish maskaniga aylanganligi kabi ilmiy-tarixiy ma'lumotlardan Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ko'rgazmalarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 23-martdagi 02-10/854-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi Qashqadaryo vohasidagi mavjud qadamjo va ziyoratgohlar tarixi aks ettirilgan, voha moddiy madaniyati tarixiga bag'ishlangan buklet va flayerlar xorijiy va mahalliy sayyohlarga vohaning me'morchilik va ziyorat turizmi, ziyorat odobi bo'yicha xulosalar chiqarish imkonini bergan.

Qashqadaryo vohasi muqaddas ziyoratgohlar Shahrisabz shahridagi Oqsaroy, Dorussiyodat, Dorutilovat, Mavlono Xo'jagiy Imkanagiy, Kitob tumanidagi Hazrati Bashir, Qamashi tumanidagi Katta Langar, Qarshi tumanidagi Hazrati imom Mu'in, Kasbi tumanidagi Sulton Mir Haydar kabi ziyoratgohlarda madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish katta ahamiyatga ega ekanligi haqidagi tarixiy ma'lumotlardan Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ko'rgazmalarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 23-martdagi 02-10/854-son ma'lumotnomasi). Natijalarning amaliyotga qo'llanilishi muzeylarga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlarga Qashqadaryo vohasining qadamjo va ziyoratgohlari, arxeologik obyektlari tarixini keng jamoatchilik va yoshlarga o'rgatishda va targ'ib etishda, shuningdek, viloyatda ziyorat turizmi salohiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Qashqadaryo vohasidagi ziyoratgohlarning tarixiy-geografik joylanishi hudud ekologiyasi, millatning sog'lom rivojlanishi yo'llarini belgilab olish maqsadlariga xizmat qiluvchi ekoturistik hamda davolovchi xususiyatga ega ziyoratgohlar tarixi va ilmiy-tarixiy ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Ko'hna manzillar" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 3-apreldagi 02-31/-503-son ma'lumotnomasi). Natijada Kitob tumanidagi "Hazrati Bashir" ziyoratgohi, "Ne'matulloh Valiy" ziyoratgohi, "Oq suv" ziyoratgohi, Yakkabog' tumanidagi "Chillabuloq" kabi ziyoratgohlarning xalqimiz ma'naviy hayotidagi rolini inkor etuvchi bir yoqlama mutaassiblik nuqtai nazardan qarashlarga qarshi xolisona tarixiylik asosida xulosalar berilgan.

Qashqadaryo vohasidagi ziyoratgoh va qadamjolar (Abu Ubayda ibn al-Jarroh ziyortagohi, Hazrati Qusam shayx ota ziyoratgohi va boshqa) tarixiy madaniy meros obyektlari tarixi va ziyorat turizmini vohada rivojlantirish omillari va ziyorat to'g'risidagi ilmiy-tarixiy ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Ko'hna manzillar" ko'rsatuvini tayyorlashda

foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2023-yil 3-apreldagi 02-31/-503-son ma’lumotnomasi). Natijada Nasafiy, Naxshabiy, Keshiy nisbalari bilan mashhur bo‘lgan tasavvuf kabi islom ilmlarining rivojlanishida katta hissa qo‘shgan, hozirda ular mangu joylashgan manzil ziyorat va muqaddas qadamjo sifatida mahalliy aholi orasida foydalanib kelinayotgan shaxslarning ilmiy merosini tadqiq qilish, Qashqadaryo vohasi tarixini o‘rganish, turizm salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, olimlarning islom ilmlari va madaniyatida tutgan o‘rnini aniqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, respublika va xalqaro konferensiyalarda 5 ta, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 3 ta va xorijiy jurnalda 5 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, muammoning o‘rganilganlik darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda turizm sohasidagi davlat siyosati va turistik salohiyatni rivojlantirilishining Qashqadaryodagi tadbiri**” deb nomlanib, ushbu bobning birinchi paragrafida “*Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining Qashqadaryo vohasidagi ahamiyati*”, xususan, Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy-madaniy meros obyektlaridagi ahvol haqida so‘z yuritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish arafasida Qashqadaryo viloyatida 289 ta arxeologik va 213 ta me‘moriy obidalar ro‘yxatiga olingan bo‘lib, ularni ahvoli achinarli ahvolda edi⁷.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-fevraldagi 64-son qarori⁸ning qabul qilinishi madaniy yodgorliklarimizni muhofaza qilish va saqlash hamda turizm salohiyatini oshirish sohasidagi dadil qadamlardan biri bo‘ldi.

1996-yil aprel oyida O‘zbekiston “Butunjahon madaniyat va tabiat merosini saqlash konvensiyasi”ga qabul qilindi. Mazkur konvensiyaning umuminsoniy

⁷ Боймуродов С., Пўлатов С. Муқаддас кадамжоларга айланса. Қашқадарё ҳақиқати. 1991 йил 9 май). 87-сон (12281).

⁸ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 13 февралдаги “Ўзбекистон археология ёдгорликларини сақлаш чоралари ва ёдгорликларни ўрганишнинг аҳволи ҳақида” 64-сонли қарори.

ahamiyatga ega bo'lgan boyliklarni hisobga olish "Butunjahon merosi ro'yxati"ga 1996-yil iyun oyida respublikaning 22 ta tarixiy yodgorligi ro'yxati yuborilgani⁹ madaniy merosni asrab avaylash, targ'ib etish hamda turizm rivoji uchun qilinishi lozim bo'lgan amaliy ishlarimiz natijasi ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000-yil 18-martdagi 911-sonli "Turistik xizmatlarni sertifikatlash haqida"¹⁰gi Qarori turizm obyektlari sonini ortishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 1-noyabrda 2013–2015-yillarda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturining qabul qilinishi orqali, dasturga kiritilgan chora tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida viloyatdagi mavjud tarixiy madaniy obyektlarning 43 tasi qayta tiklandi. Mavjud tarixiy obidalar, shuningdek, mintaqaning turistik imkoniyatlariga doir ma'lumotlarni aks ettiruvchi reklama bukletlari, broshyuralar hamda uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) reklama roliklari tayyorlandi.¹¹

O'zbekistonda 2014-yilda turizm sohasining asosiy parametrlari 2013-yildagi ko'rsatkichlardan oshib ketdi, shu jumladan, sayyohlik xizmatlari hajmi 116%, eksport prognozi 120 foizni tashkil etdi. Qabul qilingan turizm sohasini rivojlantirish dasturlariga muvofiq, Xorazm, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida 484 ta loyihani amalga oshirish uchun 260 million dollar mablag'ni o'zlashtirish ko'zda tutilgan edi.¹²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonida ham turizm sohasini rivojlantirishga alohida urg'u berilganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida hukumat tomonidan, jumladan, shaxsan Prezident tomonidan bosqichma-bosqich kompleks qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari qabul qilindi. Jumladan, 2018-yilning o'zida 4 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, 6 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 1 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi, 15 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2 ta O'zbekiston Respublikasi farmoyishi va 1 ta davlat organlarining qo'shma qarori hamda 4 ta davlat dasturi qabul qilindi. 2016-yildan boshlab yangi saylangan Prezidentning ilk qarori turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, 2019-yilgacha 14 ta Prezident qarori va 9 ta Prezident farmoni qabul qilindi¹³.

So'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish, turistlarga yetarli sharoitlar yaratish, turizm infratuzilmasini shakllantirish hamda turistlarning xavfsizligini ta'minlash borasida belgilangan chora-tadbirlar huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib borildi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi 708-f-sonli "Muqaddas ziyoratgoh va qadamjoldan foydalanishni yanada takomillashtirish va ulardan

⁹ O'zMA, M-7-fond, 1-ro'yxat, 369-yig'ma jild, 81-varaq.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 18-martdagi 911-sonli – "Turistik xizmatlarni sertifikatlash haqida"gi Qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2013-yil. – № 34. – B. 465.

¹¹ Жонимов Б. Туризмни ривожлантириш дастури: ишлар қизғин давом этмоқда. // Қашқадарё, 2014 йил 6 май.

¹² O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari. 2022-yil sentabr.

¹³ Холикова Р. Ўзбекистонда туризм салоҳиятини ривожлантириш ва унинг истикболлари / "O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda tarixiy muzeylarning o'rni". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 23-mart, 2021-yil. – B. 7-8.

samarali foydalanish to'g'risida"gi farmoniga asosan¹⁴ viloyatda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha 2018-yilning 11 oyida 183 mlrd so'mlik 54 ta loyihalar amalga oshirildi. Avtotransport vositalari, sigveylar va velosipedlarni ijaraga berish yo'lga qo'yildi. Bu sohadagi eng muhim qadam Toshkent shahridan Shahrisabz shahrigacha tez yurar (Afrosiyob) poyezdi qatnovining yo'lga qo'yilishi bo'ldi. Qarshi xalqaro aeroportini "Ochiq osmon" tizimida ishlashi uchun samarali ishlar amalga oshirildi¹⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4068-sonli qarori madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan. Qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-yilning 4-oktabrda "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, moddiy madaniy meros obyektlari mamlakatimiz turistik imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omildir. Bu jihat ko'p hollarda e'tibordan chetda qolgan. Mazkur qaror asosida sohada davlat nazoratini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti va hududlarda uning boshqarmalari tashkil etildi. Shuningdek, 2019–2021-yillarda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan oqilona foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" qabul qilindi¹⁶.

Xullas mustaqillik yillarida Qashqadaryoda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, madaniy meros obyektlarida turistik salohiyatni oshirish borasida izchil ishlar olib borildi, ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab olindi va amalga oshirilmoqda. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishga, ularni qayta ta'mirlash-tiklash ishlariga, madaniy meros obyektlarini imkon qadar asl ko'rinishida saqlab qolishni ta'minlashga, ushbu obyektlarda turizm salohiyatini oshirish, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va bunday jarayonlar davlatning hamda jamiyatdagi qadriyatlarning saqlab qolinishi va keyingi avlodga yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya birinchi bobining "*O'zbekistonda turizmning rivojlanishida tarixiy-madaniy meros obyektlarining ahamiyati*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasidagi islohotlar tufayli milliy hududlarni tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrab-avaylashni targ'ib etish orqali turizm rivojlanishi omillari ko'rsatib o'tilgan.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi 708-f-sonli "Muqaddas ziyoratgoh va qadamjolaridan foydalanishni yanada takomillashtirish va ulardan samarali foydalanish to'g'risida"gi Farmoyishi. // <https://vaqf.uz/uz/news/view/362>.

¹⁵ Rahimov A.Z. Milliy turizm industriyasini innovatsion rivojlantirish va uni strategik boshqarish. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi" amaliy loyihasining Qashqadaryo viloyati bo'yicha ijodiy-ishchi guruh ma'lumotlari.

¹⁶ Мухторов Н. Маданий мерос объектларига эътибор янада кучаяди. // <http://parliament.gov.uz>. 2018. 24-декабрь. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2021 й., 70-сон.

O'zbekistonda turizmning rivojlanishida tarixiy-madaniy meros obyektlarining salohiyati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston tarixiy madaniy meros bo'yicha xalqaro qonunlar, konvensiyalarni o'rganish va qabul qilishga alohida e'tibor qaratdi.

Bugungi kunda, O'zbekistonda 8208 ta moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyekti davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 4 ming 748 tasi arxeologiya obyektlari, 2 ming 250 tasi arxitektura obyektlari, 678 tasi monumental san'at asarlari, 532 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. Shu bilan birga, 2,5 mln ta moddiy madaniy meros obyekti hisoblangan muzey ashyolari va kolleksiyalari saqlanmoqda.

Yurtimizning tarixiy-madaniy merosi, bizga ma'lumki, quyidagi uch guruhga bo'linadi:

Moddiy madaniyat yodgorliklari.

Ilmiy tarixiy asarlar, qo'lyozma manbalar.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari ahamiyatiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:

butun insoniyat tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo'lgan xalqaro ahamiyatdagi moddiy madaniy meros obyektlari;

butun mamlakat tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo'lgan respublika ahamiyatidagi moddiy madaniy meros obyektlari;

viloyat, tuman, shahar tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo'lgan mahalliy ahamiyatdagi moddiy madaniy meros obyektlaridir.

Tarixiy jarayonlarni o'rganish, ilm-fanga olib kirish, shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xalqimizning qadim o'tmishi, shonli tarixi, ajdodlarimizdan qolgan nodir madaniy merosni ilmiy o'rganish, uni asrash va undan foydalanish bo'yicha yangicha yondashuv, talab va vazifalar davlat miqyosida kun tartibiga qo'yildi¹⁷.

Hozirgi kunda ham milliy madaniy merosni o'rganish, targ'ib etish va ulardan Respublika ma'naviy-ma'rifiy hamda iqtisodiy salohiyatini oshirishda unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda¹⁸. Davlat muhofazasiga olingan madaniy meros yodgorliklari ro'yxatining sezilarli darajada kengaytirilgani, jahon sivilizatsiyasida o'ziga xos o'rin tutgan tarixiy shahar markazlari va ularda bunyod etilgan milliy me'morchilikning nodir namunalarini "Butunjahon madaniy merosi ro'yxati" ga kiritilishi, ularni respublika dunyo miqyosida chuqur o'rganish va targ'ib etishga bo'lgan e'tiborning kuchaytirilishini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

¹⁷ Сохранение, развитие и демонстрация ремесел, как части нематериального культурного наследия в объектах культурного туризма. <https://cyberleninka.ru/article>.

¹⁸ Теоритические основы управления социально-экономическим развитием территорий с объектами культурного наследия.

Respublika miqyosida turizmni rivojlantirishda aynan tarixiy-me'moriy yodgorliklardan foydalanish masalasining mamlakatning ijtimoiy salohiyatini oshirishda qaratilgan davlat dasturlari doirasida kiritilishi shular jumlasidandir¹⁹.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tarixiy va madaniy yodgorliklarga munosabat tubdan ijobiy tomonga o'zgardi. Ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meros xalqqa qaytarildi. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni ta'mirlash va tiklash ishlarining huquqiy va moddiy-iqtisodiy asoslari ishlab chiqildi.

Tarixiy yodgorliklarni tiklash uchun sarf qilingan xarajatlar davlat va mahalliy byudjetlar hamda byudjetdan tashqari tushumlar hisobidan qoplandi. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni ta'mirlash va tiklash ishlari Xalqaro ahamiyat kasb etdi, bu esa turizm solohiyatini ko'tarishga xizmat qildi.

“Qashqadaryo vohasida madaniy meros obyektlarida turizmni rivojlanish tendensiyalari va muammolari” deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi paragrafida *“Qashqadaryo vohasi madaniy meros obyektlarining geografik joylashuvi va turistik muammolari”* hamda tarixiy-me'moriy yodgorliklarda turizmning rivojlanish jarayoni va imkoniyatlari tahlil etilgan.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha madaniy meros obyektlarining geografik joylashuviga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1197 ta arxeologiya, 208 ta arxitektura, 35 ta haykallar, 28 ta diqqatga sazovor joylar jami 1468 ta madaniy meros obyektlari mavjud²⁰.

Qashqadaryo viloyatidagi madaniy meros obyektlarini geografik hududiy joylashuvi jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) Qarshi shahri, Qarshi tumani va Koson tumanlaridagi qadimiy inshootlar;
- 2) Shahrisabz shahri, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob tumanlari hududida joylashgan ko'hna imoratlar;
- 3) Chiroqchi va Qamashi tumanlaridagi tarixiy obidalar;
- 4) Nishon, G'uzor, Dehqonobod tumanlarida joylashgan tarixiy yodgorliklar;
- 5) Kasbi, Muborak, Mirishkor tumanlaridagi tarixiy-me'moriy obyektlar.

Qashqadaryo viloyatining asosiy shaharlarini Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Koson, Yakkabog' tashkil etib, har bir hududning o'z toponimikasi, tarixi, geografiyasi, afsona va diniy qarashlari bilan bog'liq tarixiy va madaniy manzilgohlari bo'lgan. Ular o'zida alloma va avliyolarning shaxsi, nasabi, ular yashagan davr bilan bog'liq tarix, islom olamida yoki umuman ilm-fan yo'lida ulamolar qoldirgan merosni jamlab, xalqimiz milliy va ma'naviy qadriyatlarining muhim elementi sifatida asrab kelinmoqda.

Qashqadaryo viloyatidagi turizm salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi muammolar va ularning yechimi bo'yicha takliflar quyidagilar:

Chiroqchi tumani va Shahrisabz shahrini bog'lovchi 30 km (4K 342 a-378 a/yo'li Uyshun k. – 4R 84a), Chiroqchi tumani Langar MFY hududidagi qadimiy “Langar” masjidiga olib boruvchi 10 km, Kitob tumani “Shut” MFY hududidagi

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил 7 февраль <https://lex.uz/docs/3107036>.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объекtlари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги 846 сон қарори.

“Hazrati Sulton” ziyoratgohiga olib boruvchi 12 km, Shahrisabz tumani “Miraki” MFY Hisorak suv ombori bo‘ylab o‘tuvchi 14 km mahalliy ichki yo‘llarni ta‘mirlash talab etiladi;

Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarini bog‘lovchi Taxtaqoracha dovoni orqali haydovchidan tashqari 8 o‘rinli turistik transport vositasi harakatlanishiga ruxsat berilmagan;

Shahrisabz shahrining turistik salohiyati va imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim va buni uchun Tourism information center va ko‘ngilochar, ovqatlanish, savdo xizmatlari, yangi turistik transport yo‘nalishlari, “Turizm ko‘chasi”, salohiyatli tuman, shaharlarning turistik paktlarini yaratish hamda MICE, shopping, gastronomik turizmni rivojlantirish. Shahrisabz tarixiy maydoni hududida infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilish zarur;

viloyatda turistlarning qolish muddatini 1.5-2 kundan 3.5-4 kunga uzaytirish, turizm salohiyatini targ‘ib qilish va sayyohlar oqimini oshirish uchun 2-4 kunlik turpaketlar ishlab chiqilib, turistik salohiyat yuqori bo‘lgan Buxoro va Samarqand viloyati, shuningdek, chet el Turkiya, Fransiya tajribasidan foydalanish talab etiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida *“Tarixiy-me‘moriy yodgorliklarda turizmning rivojlanish jarayoni va imkoniyatlari”* yoritilgan.

Kesh (Shahrisabz) vohasining tarixiy madaniy taraqqiyoti nuqtayi nazaridan bu hududda xalqaro va madaniy turizm yo‘nalishlarini ishlab chiqishda Kitob tumanidagi Uzunqir, Podayoqtepa va Sangirtepa yodgorliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq. P. Ravshanov va N. Xushvaqovlar ushbu hudud yo‘nalishlarini shartli ravishda 3 ta marshrutga ajratib o‘tishgan.

1-marshrutga kiradigan yodgorliklar Shahrisabzdan 15-16 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, sayyohlarga asosiy transport turi avtobus yoki yengil mashinalar xizmat qilishi mumkin. Turistik yo‘nalish Podayoqtepadan boshlanadi, so‘ngra Uzunqir va Sangirtepa yodgorligiga boriladi.

2-marshrut esa Kitob shahridan antik davr yodgorliklari va Xo‘ja Imkanagiy tarixiy me‘morchilik majmuasi 1000 yillik chinorlar va qishloq manzaralari namoyish etiladi.

3-marshrut Shahrisabz shahrining tarixiy qismida joylashgan me‘morchilik yodgorliklari va “Shahrisabz” davlat muzey qo‘riqxonasi hisoblanadi²¹.

Shahrisabz turizm tizimini yanada takomillashtirish, xalqimizning tarixiy madaniy me‘morchilik yodgorliklari va muzeylarda saqlanayotgan boy tarixini, Amir Temur va Temuriylar davri tarixiy-me‘moriy yodgorliklarini asrash, o‘rganish, jahonga tanitish va targ‘ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g‘urur va iftixor, istiqlol va vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish, xalqaro turizm infratuzilmasini rivojlantirishda dastur-ul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Qadimgi ibtidoiy san‘at yodgorligi Siypantosh qoyatosh rasmlari Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi tog‘li Quruqsoy qishlog‘ining o‘ng tomonida joylashgan. Ushbu yodgorlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan

²¹ Ravshanov P., Xushvaqov N. Qashqadaryo tarixiga sa‘hat. – Toshkent: ILM-ziё-zakovat, 2020. – B. 26-27.

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-dekabrda PQ–4068-son qarori ijrosi yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi 443-sonli qarori bilan “Shahrisabz” davlat muzeyi qo‘riqxonasi tarkibiga kiritilgan²².

Siyqantosh qoyatosh rasmlari dastlab 2000-yilda R.X. Sulaymonov tomonidan aniqlangan. Siyqantosh qoyatosh rasmlari to‘g‘risida M. Xo‘janazarov, A.Y. Rogojinskiy, N.O. Xushvaqov, Ye.A. Gordeyeva, X.G. Oynazarovlar²³ ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Jahonning ilg‘or davlatlarida arxeologiya va muzeyshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlarni samarali amaliy ahamiyatini ko‘rsatishda yodgorliklardagi rasmlarni 3D formatda o‘tkazish yetakchi uslub hisoblanadi. Biroq mamlakatimizda muzey ekspozitsiyalarida qoyatosh rasmlarini ilmiy asoslangan 3D formatda namoyish etish ishlari amalga oshirilmagan.

O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid 2022–2025-yillarda yangi tashkil etiladigan ekspozitsiyalarning manzilli rejasiga ko‘ra, Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati muzeyida Yerqo‘rg‘on, Uzunqir, Sangirtepa, “Shahrisabz” davlat muzeyi qo‘riqxonasida Oqsaroy, Dor ut-Tilovat, Dor-us-Siyodat, Ko‘k gumbaz va boshqa ekspozitsiyalar tashkil etish belgilangan edi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ–261-son qarori 5-ilovasiga ko‘ra Muzeylar sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish rejasiga ko‘ra Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi “Sulaymon-Too” tarixiy-arxeologik kompleksi (Qirg‘iziston), “Shahrisabz” davlat muzeyi qo‘riqxonasi Ejlgi Taraz yeskert-kishti tarixiy madaniy muzeyi qo‘riqxonasi (Qozog‘iston) bilan xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish belgilangan.

2023–2026-yillarda muzeylashtiriladigan arxeologiya yodgorliklarining manzilli rejasiga ko‘ra Yerqo‘rg‘on shahar xarobasi ham kiritilgan.

Siyqantoshdagi 840 dan ziyod rasmlarni jonli tarzda namoyish etish va qadimgi qabilalarni xo‘jalik madaniyatini jonli tarzda tiklash borasida “Shahrisabz” davlat muzeyi qo‘riqxonasi Fransiyaning “Arxeologiya Solsberi” va “Dualet” firmalarining tajribali kompyuter dasturchilari bilan xalqaro hamkorlikda yirik loyiha tayyorlangan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, Siyqantosh yodgorligi Homo sapiens (aqli odam) tomonidan yaratilgan dastlabki rangli san’at tasvirlari aks etgan arxeologik yodgorlik sanaladi. Shuni hisobga olgan holda ushbu yodgorlikda

²² Siyqantosh ёдгорлигидаги қоятош расмлари таҳлили, ёдгорликни музейлаштириш масалалари ва уни 3D шаклга айлантириш истиқболлари // Марказий Осиё маданияти тарихи ва тарихшунослиги масалалари. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, тарих фанлари доктори, профессор Рустам Ҳамидович Сулаймоновнинг 85 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, 2024. – Б. 136.

²³ Khujanazarov M. Rock Art Sites in Uzbekistan Rock Art in Central Asia A Thematic Study page 3, ©ICOMOS. November, 2011. – P. 109-111; Рогожинский А.Е. О современных задачах археология наскального искусства Казахстана и Средней Азии Археология, этнография и антропология. // Евразии. – 2008. – №4 (36). – С. 90-92; Хушвақов Н.О. Кеш тарихи ва маданияти (Шахрисабз давлат музей-қўриқхонасида материаллари асосида). Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2023. – Б. 22; Гордеева Е.А. Ранние этапы духовной жизни Средней Азии. Диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам автореферат. – Ташкент, 2021. – С. 22-23; Oynazarov Janubiy O‘zbekiston qoyatosh rasmlari texnika-tipologiyasi va qiyosiy tahlili. 07.00.06 – Arxeologiya (tarix fanlari) tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – B. 7.

xalqaro va mahalliy turizmga moslashtirib arxeopark-arxeologik qo‘riqxonalar tashkil etish muhim masaladir va bu orqali ham turistik salohiyat yanada oshadi. Shuningdek, yodgorlikni konservatsiya qilish, yetarlicha muzey shtati ajratish, yo‘l infrastrukturasi yaratish, turistlar uchun “Vizit sentr”, muhofaza hududida “Muzey-kafe” tashkil etib, muhofaza chegarasi tabiiy tarixiy muhitni asragan holda arxeopark tashkil etish lozim deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Voha hududidagi ziyoratgohlar tarixi va turizmni rivojlantirish masalalari”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning birinchi paragrafida *“Qashqadaryo vohasi ziyoratgohlari va ularning aholi ma’naviy hayotidagi o‘rni”* masalalari yoritilgan.

Mustaqillik sharofati bilan Qashqadaryo viloyatida ham o‘lkamiz tarixi bilan bog‘liq ziyoratgohlar, jahonga mashhur tarixiy-me‘moriy obyektlarni qayta tiklash bo‘yicha qilingan va qilinayotgan ishlar milliy tarixiy merosimizga bo‘lgan hurmat va e‘tiborning namunasidir. Qashqadaryo vohasi 2700 yildan ziyod tarixga, qadimiy madaniyati va sivilizatsiya durdonalariga ega Naxshab, Nasaf, Kesh kabi shaharlarda faoliyat ko‘rsatgan, diniy hamda dunyoviy ilm-fan rivojiga o‘lkan hissa qo‘shgan Abu Turob Naxshabiy, Najmiddin Nasafiy, Saido Nasafiy, Abu Muhammad Keshiy kabi allomalarni yetishtirgan bebaho zamindir!²⁴

Qashqadaryo vohasi ziyoratgohlari va o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiqotchi S. Jo‘rayeva quyidagi guruhlar asosida tasniflagan:

So‘fiylik va tasavvuf tariqatlari vakillarining nomi bilan bog‘liq qadamjolar;

Islom olamida fan, hadisshunoslik ilmiga hissa qo‘shgan shaxslar nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar;

Avliyo, pir darajasidagi shaxslar nomiga aloqador ziyoratgohlar;

Xo‘ja, sayyid, sahobalar nomi bilan bog‘liq qadamjolar;

Tarixiy shaxslar bilan bog‘liq ziyoratgohlar;

Adabiyot tarixi fani rivojiga hissa qo‘shgan olimlar nomi bilan bog‘liq joylar;

Afsona rivoyatlar va joy nomlari bilan bog‘liq qadamjolar;

Vohada joy nomlari toponimikasi bilan bog‘liq ziyoratgohlar;

Shaxsi aniqlanmagan yoki rasmiy ma‘lumot saqlanmagan ziyoratgohlar²⁵.

Islom ta‘limoti, tasavvuf falsafasi, hadis ilmi bo‘yicha buyuk ajdodlarimizdan qolgan boy merosni izchil o‘rganish va ijodiy o‘zlashtirish naqadar muhim bo‘lsa, bunday tabarruk zotlarning hayot va faoliyati bilan bog‘liq muqaddas ziyoratgohlar tarixini aks ettirgan tarixiy obidalar Qashqadaryo vohasida ham asrlar mobaynida avaylab asrab kelinmoqda. Viloyatning G‘uzor tumanidagi Miri Janda ota, Musofir ota, Qamashi tumanidagi Mushkul ota, Koson tumanidagi Isaxon ota, Allayor eshon, Kitob tumanidagi Qabri Oxun ota, Chiroqchi tumanidagi Ko‘ktosh ota, Ko‘kto‘nli ota, Hakim ota, Qarshi tumanidagi Yettitug‘ ota, Shayx Shibliy, Kasbi tumanidagi Sulton Mirhaydar ota, Murodbaxsh ota, Yakkabog‘ tumanidagi Qura shayx, Tutak ota kabi tabarruk maskanlar obodonlashtirildi.

²⁴ Mirziyoyev Sh.M. Har qanday sinovlarni yengishga qodir xalq (Qashqadaryo viloyati) . Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 303-336.

²⁵ Jo‘rayeva S. O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi ziyoratgohlar tarix va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o‘rni. Monografiya. – Toshkent. O‘zbekiston savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi, 2021. – B. 67-68.

